

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
QARORI

**PREZIDENT MAKTABLARINI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

Yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, iqtidorli bolalarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ularning huquqiy ong va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish xalq ta'lifi sohasidagi davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatning kelgusidagi jadal taraqqiyoti yosh iste'dodlarni aniqlash, iqtidorli bolalarni tanlab olish va o'qitish tizimini tashkil qilish, o'sib kelayotgan avlodning intellektual imkoniyatlarini namoyon etishga yordam beruvchi ko'p tarmoqli ta'lim muhitini yaratish bo'yicha ishlar sifatini oshirish zaruratini taqozo etmoqda.

Iqtidorli bolalarni aniqlash, ta'lim jarayonida ilg'or texnologiyalarni qo'llagan holda ularni o'qitish va tarbiyalash bo'yicha yaxlit tizim yaratish, iste'dodli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ma'nан yetuk va intellektual jihatdan barkamol avlodni shakllantirish, shuningdek 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid **Davlat dasturiga** muvofiq:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasida, viloyatlar va Toshkent shahrida ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim muassasasi shaklidagi Prezident maktablari tashkil etilsin.

2. Quyidagilar Prezident maktablarining asosiy vazifalari etib belgilansin:

iqtidorli bolalarni aniqlash, tanlash va o'qitish, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek o'quvchilarning intellektual, ilmiy va ijodiy salohiyatini ochib berish;

tabiiy va aniq fanlarni chuqur o'rganish, xorijiy tillar, muhandislik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirishni tashkil qilish, o'quvchilarning innovatsion g'oyalari va ishlanmalarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

o'quvchilarni o'qitish va ular bilimini baholashning zamonaviy uslublarini, shuningdek ta'lim dasturlarining integratsiyalashuviga asoslangan o'qitishning fanlararo yondashuvini joriy qilish va keyinchalik ijobjiy tajribani respublika xalq ta'limi tizimiga tatbiq etish;

o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, ularda yetakchilik ko'nikmalari va notiqlik san'atini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash, axborotni izlash, tahlil qilish va qayta ishlash, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash malakasini oshirish;

o'quvchilarning umumta'lim fanlari bo'yicha xalqaro olimpiadalar, tanlovlardan va musobaqalardan munosib ishtirokini ta'minlash;

o'quvchilarda vatanparvarlik va Vatanga muhabbat tuyg'usini, bag'rikenglik, qonunlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatni, hayotga qat'iy ishonch va qarashlarni shakllantirish;

o'quv dasturlarining uzluksizligini ta'minlash masalalarida xuddi shu yo'nalishdagi milliy va xorijiy umumiyo'rta va oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, bitiruvchilarning ilg'or xorijiy oliy o'quv yurtlarida va ularning respublikamizdagi filiallarida o'qishini davom ettirish.

3. Belgilansinki:

Prezident maktablariga qabul qilish respublika umumta'lim muassasalarining 4-sinf bitiruvchilari orasidan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi (keyingi o'rinnlarda — Vazirlik) tomonidan belgilangan tartibda o'tkaziladigan mantiqiy fikrlash testlari, yozma imtihon va suhbatlar natijalariga ko'ra amalga oshiriladi;

Prezident maktabining yillik qabul kvotasi 24 nafar o'quvchidan iborat bo'lib, ikkita sinfga bir xil — 12 nafardan o'quvchi taqsimlanadi;

birinchi o'quv yilida Prezident maktablarining har biriga 5 — 10-sinflarga 144 nafardan o'quvchi o'qishga qabul qilinadi;

Prezident maktablarida ta'lif jarayoni xorijiy ta'lif muassasalari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan o'quv rejali va dasturlari bo'yicha ingliz tilida amalga oshiriladi;

Prezident maktablarida "STEAM — ta'lif" (Science — tabiiy fanlar, Technology — texnologiyalar, Engineering — texnik ijodkorlik, Art — san'at, Mathematics — matematika) dasturi joriy etiladi;

Prezident maktabining 9 — 11-sinflarida o'qitish o'quvchilarning qiziqishlari va xususiyatlarini inobatga olgan holda, ayrim fanlar va ularni o'rganish darajasini tanlab olish orqali o'quv jarayonini individuallashtirishni ko'zda tutadi;

asosiy o'quv dasturi bilan birgalikda Prezident maktablarida o'quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda sinfdan tashqari amaliy mashg'ulotlar o'tkazish nazarda tutiladi;

Prezident maktablari bitiruvchilariga belgilangan tartibda davlat tomonidan tasdiqlangan ma'lumot to'g'risidagi hujjat (shahodatnoma, attestat) bilan bir qatorda, xorijiy mamlakatlarning yetakchi oliy ta'lif muassasalariga kirish imkonini taqdim etuvchi xalqaro darajadagi tegishli dastur diplomi (International Baccalaureate, Advanced Placement yoki International Advanced Levels) beriladi;

Prezident maktablari bevosita Vazirlikka bo'ysunadi.

4. Vazirlik Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lif sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi va boshqa manfaatdor idoralar bilan birgalikda 2019-yil 1-mayga qadar quyidagi tartiblarni belgilab beruvchi Prezident maktabi haqidagi nizomni tasdiqlash bo'yicha hukumat qarori loyihasini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda kirmsin:

Prezident maktablarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish;

kirish imtihonlarini o'tkazish hamda o'quvchilarning intellektual salohiyati va kreativ fikrlashini baholagan holda ularni qabul qilish;

Prezident maktablari xodimlarini, shu jumladan yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni tanlab olish, yollash va ular mehnatiga haq to'lash;

Prezident maktablari faoliyatini moliyalashtirish va namunaviy shtat jadvalini tasdiqlash.

5. Quyidagilar:

2019 — 2021-yillarda Prezident maktablarini qurish jadvali [1-ilovaga](#) muvofiq;

Toshkent, Nukus va Xiva shaharlarida Prezident maktablari faoliyatini tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi [2-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

6. Prezident maktablari faoliyatini tashkil etish bo'yicha komissiya (keyingi o'rnlarda — Komissiya) [3-ilovaga](#) muvofiq tarkibda tuzilsin.

Prezident maktablariga quyidagi masalalarda ko'maklashish Komissiyaning asosiy vazifalari etib belgilansin:

moddiy-texnik bazani mustahkamlash, ta'lif sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni moliyalashtirish va amalga oshirish;

Prezident maktablari faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlash uchun chet el investorlari mablag'larini, texnik yordam (grantlar) va qonun bilan taqiqlanmagan boshqa manbalarni jalb qilish;

Prezident maktablari mablag'larini samarali boshqarish va ulardan maqsadli foydalanish ustidan nazoratni ta'minlash;

Prezident maktablari faoliyatining sifati va samaradorligini oshirish, shu jumladan ta'lif jarayoniga o'qitishning ilg'or shakllari va uslublarini, pedagogik, kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha takliflar tayyorlash.

Komissiyaga:

a) Prezident maktablarini zamонавиј ускунлар, мебел, компютер техникаси билан жиҳозлаш, шунингдек ularни о'кув адабиётлари, методик қо'llанмалар ва бoshqa vositalar bilan ta'minlash bo'yicha namunaviy loyihalari va me'yorlarni tasdiqlash;

b) istisno tariqasida, tanlov (tender) savdolarini tashkillashtirmasdan, eng yaxshi takliflarni tanlab olish yo'li bilan:

loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun — loyiha tashkilotlarini;

Prezident maktablarini qurish uchun — pudrat tashkilotlarini;

Prezident maktablarini zamonaviy uskunalar, mebel, kompyuter texnikasi bilan jihozlash, shuningdek ularni o'quv adabiyotlari, metodik qo'llanmalar va boshqa vositalar bilan ta'minlash uchun — ishlab chiqaruvchilar (yetkazib beruvchilar)ni;

Prezident maktablarida o'quv-metodik rahbarlikni ta'minlash, o'quv jarayonini tashkil etish va yuritish, shuningdek o'quvchilarni qabul qilish va chet elliq yuqori malakali mutaxassislarini yollash uchun — ta'lif sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi ixtisoslashgan xorijiy tashkilotlarni belgilash huquqi berilsin.

7. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bir oy muddatda Vazirlikka Prezident maktablari qurish uchun yer uchastkalarini ajratish bo'yicha takliflar kiritsin.

Vazirlik O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi bilan birligida Toshkent, Nukus va Xiva shaharlaridagi Prezident maktablari 2019-yil 20-avgustga qadar, respublikaning boshqa hududlarida esa tegishlicha 2020 va 2021-yil 20-avgustga qadar qurib bitkazilishi va ishga tushirilishini ta'minlasin.

8. Quyidagilar:

Vazirlik huzuridagi "Xalq ta'lifi sohasida loyiha hujjatlariga texnik topshiriqlarni ishlab chiqish va qurilish obyektlari sifatini monitoring qilish bo'yicha injiniring kompaniyasi" DUK — Prezident maktablarini qurish va ularni zamonaviy uskunalar, mebel, kompyuter texnikasi bilan jihozlash, o'quv adabiyotlari, metodik qo'llanmalar va boshqa vositalar bilan ta'minlash bo'yicha buyurtmachi etib;

Vazirlik huzuridagi "Innovatsiya, texnologiya va strategiya markazi" davlat unitar korxonasi — Prezident maktablari faoliyatining metodik va axborot-tahliliy ta'minoti uchun mas'ul tashkilot etib belgilansin.

9. O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan va belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro'yxatlar bo'yicha Prezident maktablarini qurish, rekonstruksiya qilish, jihozlash va faoliyatini ta'minlash uchun olib kelinadigan uskunalar, kompyuter texnikasi, o'qitishning texnik vositalari, adabiyotlar, multimedia mahsulotlari hamda qurilish materiallari, butlovchi buyumlar, ehtiyyot qismlar 2022-yil 1-yanvargacha bojaxona to'lovlardan (bojaxona rasmiylashtirushi uchun yig'imlardan tashqari) ozod etilsin.

10. Belgilab qo'yilsinki:

Prezident maktablarini qurish va zamonaviy asbob-uskunalar, mebel, kompyuter texnikasi bilan jihozlash, o'quv adabiyotlari, metodik qo'llanmalar va boshqa vositalar bilan ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag'lari, xorijiy investitsiyalar, yuridik va jismoniy shaxslarning xayriya ehsonlari, Komissiya tomonidan jalb etiladigan qo'shimcha mablag'lar, Vazirlikning budgetdan tashqari mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi;

Toshkent, Nukus va Xiva shaharlarida Prezident maktablarini qurish bo'yicha namunaviy loyihalarini ishlab chiqish "Prime Tower Group" MChJ (Toshkent shahri) tomonidan Vazirlik huzuridagi "Xalq ta'lifi sohasida loyiha hujjatlariga texnik topshiriqlarni ishlab chiqish va qurilish obyektlari sifatini monitoring qilish bo'yicha injiniring kompaniyasi" DUK bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

11. Loyiha va pudrat tashkilotlariga, istisno tariqasida, Prezident maktablari qurishni loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish bilan bir vaqtda amalga oshirishga ruxsat berilsin.

12. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi Prezident maktablarini qurish bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini kompleks ekspertizadan o'tkazishni ta'minlasin va qurilish-montaj ishlarining sifatli bajarilishi ustidan davlat arxitektura-qurilish nazoratini o'rnatsin.

13. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Vazirlikning buyurtmanomalariga asosan mazkur qarorni amalga oshirish doirasida jalb qilinadigan Prezident maktablarining chet ellik xodimlari hamda ularning oila a'zolari uchun ko'p martalik kirish vizalari konsullik va boshqa yig'imlar undirilmasdan belgilangan tartibda rasmiylashtirilishini ta'minlasin.

14. Belgilab qo'yilsinki, Prezident maktablarining joriy faoliyatini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi, bunda jumladan quyidagi xarajatlar ham qoplanadi:

Prezident maktablarining, shu jumladan shartnoma asosida xizmat ko'rsatuvchi xodimlariga ish haqi, ustamalar, qo'shimcha haqlar, mukofotlar va boshqa rag'batlantiruvchi to'lovlari;

ta'lim sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi ixtisoslashgan xorijiy tashkilotlarning Prezident maktablarida o'quv-metodik rahbarlikni ta'minlash, ta'lim jarayonini yuritish hamda o'quvchilarni qabul qilish va yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni yollash bo'yicha xizmatlari uchun to'lovlari;

o'quvchilarni bepul oziq-ovqat, maktab formasi va yashash joyi bilan ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda, Prezident maktablari faoliyatini ta'minlash bilan bog'liq boshqa tadbirlarni moliyalashtirish xarajatlari.

15. Vazirlik manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kirtsin.

16. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinnbosari A.A. Abduhakimov va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A. Abduvxitov zimmasiga yuklansin.

### **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2019-yil 20-fevral,  
PQ-4199-son

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidentining 2019-yil 20-fevraldaggi  
PQ-4199-son qaroriga  
1-ILOVA

### **2019 — 2021-yillarda Prezident maktablarini qurish**

#### **JADVALI**

T/r	Hudud nomi	Jami	Shu jumladan:		
			2019-yilda	2020-yilda	2021-yilda
	<b>Jami:</b>	<b>14</b>	<b>3</b>	<b>5</b>	<b>6</b>
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	1	1	-	-
2.	Andijon viloyati	1	-	-	1
3.	Buxoro viloyati	1	-	1	-
4.	Jizzax viloyati	1	-	1	-
5.	Qashqadaryo viloyati	1	-	1	-
6.	Navoiy viloyati	1	-	-	1
7.	Namangan viloyati	1	-	-	1
8.	Samarqand viloyati	1	-	1	-
9.	Surxondaryo viloyati	1	-	-	1
10.	Sirdaryo viloyati	1	-	-	1

11.	Toshkent viloyati	1	-	-	1
12.	Farg'ona viloyati	1	-	1	-
13.	Xorazm viloyati	1	1	-	-
14.	Toshkent shahri	1	1	-	-

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidentining 2019-yil 20-fevraldag'i  
PQ-4199-son qaroriga  
2-ILOVA

**Toshkent, Nukus va Xiva shaharlarida Prezident maktablari faoliyatini tashkil etishga oid  
qo'shimcha chora-tadbirlar**

**DASTURI**

T/r	Chora-tadbirlarning nomi	Amalga oshirish shakli	Amalga oshirish muddatlari	Mas'ul ijrochilar
<b>I. Tayyorgarlik ishlari</b>				
1.	Toshkent, Nukus va Xiva shaharlarida Prezident maktablarini (keyingi o'rinnarda — Prezident maktablari) qurish va zamonaviy uskunalar, mebel, kompyuter texnikasi va boshqa o'quv-laboratoriya uskunalari bilan jihozlash, ularni o'quv adabiyoti, metodik qo'llanma va boshqa vositalar bilan ta'minlash bo'yicha pudratchi tashkilotlarni aniqlash.	Prezident maktablari faoliyatini tashkil etish bo'yicha komissiya qarori	2019-yil 1-aprelgacha	Xalq ta'limi vazirligi (Sh. Shermatov), Qurilish vazirligi (A. To'xtayev), manfaatdor vazirliklar va idoralar
2.	Prezident maktablarini qurish va zamonaviy uskunalar, mebel, kompyuter texnikasi va boshqa o'quv-laboratoriya uskunalari bilan jihozlash, ularni o'quv adabiyoti, metodik qo'llanma va boshqa vositalar bilan ta'minlash bo'yicha o'z vaqtida moliyalashtirishni ta'minlash.	Tashkiliy chora-tadbirlar	loyihalarni amalga oshirish davomida	Moliya vazirligi (A. Haydarov), Xalq ta'limi vazirligi (Sh. Shermatov), Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (S. Umurzoqov)
3.	Prezident maktablari ustavlarini ishlab chiqish va tasdiqlash hamda ularni belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazishni ta'minlash.	Ustav	2019-yil 1-sentabrgacha	Xalq ta'limi vazirligi (Sh. Shermatov)
<b>II. O'quv-tarbiya jarayonini tashkillashtirish</b>				
4.	Xalqaro standartlar talablarini hisobga olgan holda Prezident maktablarining o'quv reja va dasturlarini tasdiqlash.	Idoraviy hujjat	2019-yil 15-avgustgacha	Xalq ta'limi vazirligi (Sh. Shermatov), Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (U. Tashkenboyev)
5.	Prezident maktablarining o'quv-tarbiya jarayoniga "STEAM-ta'lumi" dasturini (Science — tabiiy fanlar, Technology — texnologiya, Engineering — texnik ijodkorlik, Art — san'at, Mathematics — matematika) joriy qilish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2019-yil mart — avgust	Xalq ta'limi vazirligi (Sh. Shermatov), Moliya vazirligi (A. Haydarov)
6.	Prezident maktablari bitiruvchilarga tomonidan xalqaro darajadagi tegishli dastur diplomlarini (International Baccalaureate, Advanced Placement yoki International Advanced Levels) taqdim etish mexanizmlarini joriy qilish.	Tashkiliy chora-tadbirlar kompleksi	2019-yil davomida	Xalq ta'limi vazirligi (Sh. Shermatov), Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (U. Tashkenboyev), Tashqi ishlar vazirligi (A. Komilov)

7.	Prezident maktablarini jihozlash uchun kerakli o'quv-metodik adabiyotlar va ilmiy nashrlar ro'yxatini aniqlash va ularni xarid qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2019-yil 1-iyulgacha	Xalq ta'limi vazirligi (Sh. Shermatov), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (K. Allamjonov), Moliya vazirligi (A. Haydarov)
8.	Prezident maktablarida o'quv jarayonini tashkil etish uchun xorijiy yuqori malakali mutaxassislarni tanlab olish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2019-yil 15-iyungacha	Xalq ta'limi vazirligi (Sh. Shermatov), Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (Sh. Kudbiyev), Moliya vazirligi (A. Haydarov)

### III. O'quvchilarni tanlab olish va qabul qilish

9.	Prezident maktablariga o'quvchilarni saralash boshlanishi va tartibi, o'quvchilar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar va boshqa afzalliklar haqida ma'lumotlarni keng jamoatchilikka yetkazish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2019-yil aprel-may	Xalq ta'limi vazirligi (Sh. Shermatov), MTRK (A. Xodjayev), O'zA (A. Ko'chimov)
10.	Nomzodlar hujjalarni, shu jumladan elektron shaklda qabul qilishni tashkil etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2019-yil iyun-iyul	Xalq ta'limi vazirligi (Sh. Shermatov), Adliya vazirligi (R. Davletov), LBMA (D. Li)
11.	Kirish imtihonlarini o'tkazish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2019-yil 10-avgustgacha	Xalq ta'limi vazirligi (Sh. Shermatov)
12.	Prezident maktablariga o'quvchilarni qabul qilish.	Buyruq	2019-yil 20-avgustgacha	Xalq ta'limi vazirligi (Sh. Shermatov)

### IV. Moddiy-texnik bazani shakllantiri

13.	Prezident maktablarini zamonaviy uskunalar, mebel, kompyuter texnikasi va boshqa o'quvlaboratoriya uskunalari bilan jihozlash, ularni o'quv adabiyoti, metodik qo'llanma va boshqa vositalar bilan ta'minlash.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2019-yil 15-avgustgacha	Xalq ta'limi vazirligi (Sh. Shermatov), Moliya vazirligi (A. Haydarov)
14.	Prezident maktablarini ishga tushirish va o'quv jarayonini boshlash.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2019-yil 20-avgustgacha	Xalq ta'limi vazirligi (Sh. Shermatov), Qurilish vazirligi (A. To'xtayev), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi (K. Sariyev), Toshkent shahar hokimligi (J. Ortioxodjayev)

Izohlar:

1. Huquqiy munosabatlarni tartibga solish predmeti va sohasidan kelib chiqib, chora-tadbirlarni amalga oshirish shakli o'zgarishi, ishlab chiqilayotgan hujjalarni esa birlashtirilishi mumkin;
2. Ikki yoki undan ortiq bandlar birlashtirilganda, qo'shilayotgan bandlar uchun o'rnatilgan eng kech muddat ijro muddati etib belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagagi  
PQ-4199-son qaroriga  
3-ILOVA

## Prezident maktablari faoliyatini tashkil etish bo'yicha komissiya

TARKIBI

- A.N. Aripov — O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri, Komissiya raisi
- A.A. Abduvaxitov — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi, Komissiya raisi o'rinosari
- A.A. Abduxakimov — O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinosari, Komissiya raisi o'rinosari
- J.A. Qo'chqorov — O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinosari — moliya vaziri
- E.M. G'aniyev — O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinosari
- Sh.X. Shermatov — O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vaziri
- Iavozimi bo'yicha — Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari
- A.X. To'xtayev — O'zbekiston Respublikasi qurilish vaziri
- A.X. Abdullayev — O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi raisi
- U.U. Sharifxodjayev — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi sho'ba mudiri
- R.O. Karimjonov — O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi "Innovatsiya, texnologiya va strategiya markazi" DUK direktori, Komissiya kotibi

Izoh: Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarini bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

*(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.02.2019-y., 07/19/4199/2642-son)*